

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METODIKASI
FANINING O'QUV DASTURI
(1-kurs)**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

**Magistratura
Mutaxassisligi:** 70110102- Pedagogika va psixologiya

Jizzax – 2022

9.	Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 202__ yil "___" ___dagi ___-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.
10	Fan/modul uchun ma'sullar: Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dots.
11	Taqrizchilar: R.Yorlatov JDPI Magistratura bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent N.S.Qiyomov Samarqand davlat universiteti, Pedagogika kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori ,(DSc)

Fan/Modul kodi 351MFO/MM8	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	Kreditlar 4			
Fan/Modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek					
Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	Hami-masi	Jami auditoriya	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim
1-semestr	120	60	30	-	30	60
Jami	120	60	30	-	30	60
1.	I. Fanning mazmuni - Fanni o'qitishning maqsadi – magistrnlarni mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasiga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish Fanning vazifasi – magistrnlarni mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; pedagogik fanlarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.					
2.	<p><i>Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</i></p> <p>II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Mutaxassislik fanlar va ularning o'ziga xosliklari. (2 soat) Pedagogikaning mutaxassislik fanlar tizimida tutgan o'ri. Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar.</p> <p>2-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiya masalalari. (2 soat) Fanlararo integratsiya masalalari. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiya</p> <p>3-mavzu: Oliy ta'limda o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. (2 soat) Yaxlit pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalarining tahlili. Pedagogik aksioma. Mutaxassislik fanlarini o'qitishga tizimli yondashuv.</p> <p>4-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagog shaxsi va uning metodik kompetentligi. (2 soat) O'quv tarbiya maqsadlarini belgilash. O'quv maqsadlariga</p>					

erishilganligini baholash. Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari, qonuniyatlari va tamoyillari. Magistrantlarni o'quv jarayonini loyihalash va rejalashtirish qoidalarini bilan tanishtirish.

5-mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisining o'quv me'yoriy hujjatlari. (2 soat)

Pedagog shaxsi va uning kasbiy kompetentligi. O'qituvchining innovatsion kompetentligi, o'quv – me'yoriy hujjatlar, o'quv uslubiy majmualar, ta'lim texnologiyalari, o'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining shaxsiy ish rejalari, kalendar tematik rejalar. Guruh va professor – o'qituvchining jummalari yuritish tartibi.

6-Mavzu: Oliy ta'lim mazmuni. (2 soat)

Mutaxassislik fanlari o'qitish mazmunini belgilashda sohaga yo'nalganlik.

7-mavzu. Mutaxassislik fanlar o'qitish mazmunini belgilash tamoyillari. (2 soat)

O'qitish maqsadi va mazmunining birligi. Mutaxassislik fanlar o'qitish mazmunining o'zlashtirish darajasini ta'minlash olishi. O'qitish ob'ekti, o'zlashtirish ob'ekti va o'qitish natijasi.

8-mavzu: Mutaxassislik fanlari o'qitish shakli, metodlari. (2 soat)

Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari. O'qitishning rasmiy, norasmiy va virtual shakli. Mutaxassislik fanlari o'qitishda masofaviy shakllari. Mutaxassislik fanlari o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta'lim. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlari: an'anaviy va innovatsion turkum. O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar, o'qitishning texnik vositalari, tarqatmalar.

9-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari. (2 soat)

Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari. Ta'lim jarayonida foydalanish.

10-mavzu: Oliy ta'limda o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari. (2 soat)

Oliy ta'limni mutaxassislik fanlarini o'qitishning tutgan o'rni. Mutaxassislik fanlardan kurs ishlari mazmuni, uni tayyorlash va rasmiylashtirishga qo'yiladigan didaktik talablar. Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish talablari.

11-mavzu. Tashkiliy va ilmiy metodik ta'minoti. (2 soat)

Mutaxassislik fanlardan o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni, maslahat soatlari tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

12-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimi. (2 soat)

92 b.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi: bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.

6. Xasanboyev J, To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

7. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

8. Kagan, S. Cooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA: Kagan Publishing, 1994.

9. Hartley I. Strategies from Programmed Instructional Technology. London, 2006, 179 r.

10. Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011 – 244 p.

11. Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. – Kazan: KGU, 1996.

12. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2002.

13. Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya / Sost. YE.S. Rapasevich. – Minsk: «Sovremennoye slovo», 2005.

Internet saytlari:

1. www.zhivnet.uz.

2. www.edu.uz.

3. www.google.uz.

4. www.gov.uz.


<p>7. VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabanning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p>8. VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'Q.Tolipov, D.I.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (barcha magistratura mutaxassisliklari o'quv qo'llanma uchun). Toshkent, 2019 2. Slastenin V.A. Pedagogika Uchib. Posobi dlya stud. Vessh. Ped. Uchib. Zavedeniye / V.A.Slastenin, I.F.Isayev, E.N.Shivanov; Pod red. V.A.Slastenina. M., 2008. 3. Pedagogika veshniy shkoli. Uchebno metodicheskiy kompleks. Kazan .2011 4. Omonov., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E., Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. -T., IQTISOD-MOLIYA, 2009. 5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat.- T., IQTISOD-MOLIYA, 2011 <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -
---	---

<p>Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar bilim, ko'nikma va malakalar tizimini baholashning o'ziga xosligi.</p> <p>13-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan ifodalash metodikasi. (2 soat)</p> <p>Pedagogik klavimetriya. Xalqaro baholash dasturlari.</p> <p>14-mavzu: Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (2 soat)</p> <p>Ta'lim va tarbiya texnologiyalarining umumiy mohiyati. Ta'lim texnologiyasi pedagogik tizimi elementlari. Ta'lim jarayonini tashkil etish shartlari va ta'lim texnologiyasining funksional tuzilmasi.</p> <p>15-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar turlari. (2 soat)</p> <p>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari: hamkorlik pedagogikasi, muammoli, interfaol, o'yinli, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi.</p>	<p>II. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Seminar mashg'uloti talabalar bilimni chuqurlashtirib mustahkamlaydi. Har bir seminar mashg'ulotining rejalari va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati ishchi dasturda to'liq aks etadi. Shuningdek, seminar mashg'ulotlarining rejalari kundalik dolzarb ma'lumotlar bilan boyitiladi, kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.</p> <p>Ayniqsa fanlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarining savollari kundalik yangiliklar va senat Oliy majlis qarorlari, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bo'yicha materiallar bilan to'ldiriladi. O'qituvchi har bir amaliy-seminar mashg'ulot darsi uchun zarur ko'rsatma va tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi zarur.</p> <p>III.1. Seminar mashg'uloti mavzulari</p> <p>1-mavzu: Oliy ta'limda o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Oliy ta'limda o'qitish qonuniyatlari 2. Oliy ta'limda o'qitish tamoyillari <p>2-mavzu: Mutaxassislik fan o'qituvchisining metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi. (2 soat)</p>
---	---

<p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mutaxassislik fan o'qituvchisining metodik ishlari 2. Mutaxassislik fan o'qituvchisining metodik ishlarini rejalashtirish. <p>3-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchining shaxsiy ish rejaları, kalendar tematik rejalar. 2. Guruh va professor – o'qituvchining jurnallarini yuritish tartibi 3. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. <p>4-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllarining umumiy tasnifi. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari 2. O'qitishning rasmiy, norasmiy va virtual shakli. 3. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda masofaviy shakllari. <p>5-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitishga tizimli yondashuv. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishga doir yondashuvlar. 2. Mutaxassislik fanlarini o'qitishga tizimli yondashuv 3. <p>6-mavzu: Oliy ta'limda o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yaxlit pedagogik jarayon. 2. Pedagogik aksioma 3. Oliy ta'limda o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. <p>7-mavzu: O'qituvchining shaxsiy ish rejaları, kalendar tematik rejalar. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'qituvchining shaxsiy ish rejaları 2. kalendar tematik rejalar 3. Me'yoriy hujjatlar <p>8-mavzu: Oliy ta'lim mazmuni. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Oliy ta'lim mazmuni 2. Mutaxassislik fanlar o'qitish mazmunini belgilashda sohaga yo'nalganlik <p>9-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari. (2 soat)</p>	<p>Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.</p> <p>2) «Zinama-zina» usuli. Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.</p> <p>3) «Charxpalak» usuli. Kichik guruhlar o'z tarqatma materialidagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo'ylab bir-biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o'zlariga qaytib keladi. Guruhlar o'z ishini tuzatishlar bilan takomillashirgan holda taqdimot qilishadi.</p> <p>4) «Bumerang» usuli. Talaba bajargan ishini avval o'z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so'ng yana o'z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.</p> <p>5) «Rezyume» usuli. Kichik guruhlarda muammolar o'rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko'rsatilmaydi, boshqa talabalar taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.</p> <p>6) «Muammo» usuli. Dastlab muammoli videolavha ko'rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlarni o'zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo'yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.</p> <p>7) «Labinrt» usuli. O'qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo'lib undan chiqish yo'li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o'rganiladi va taqdimot o'tkaziladi.</p> <p>8) FSMU usuli. Talabadan o'z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S – fikriga sabab ko'rsatish; M – sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.</p> <p>9) «Muloqot» usuli. Kichik guruhlarda alohida mavzular o'rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o'rtasida muloqot bo'lib o'tadi. O'qituvchi kichik guruhlarning fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va oxirida o'z munosabatini bildiradi.</p>
---	---


6.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarni bildiradi. Talabdan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarni yozma ifodalab berish talab etiladi.



4) SWOT-tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

5) "Baliq skeleti" sxemasi. Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Baliq skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga – muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



6) Aqliy hujum usuli. Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

7) Esse. Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv materiali bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

Interfaol o'qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

1) «Tushunchalar tahlili» usuli. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarning izohini chiqaradi.

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari
2. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlaridan ta'lim jarayonida foydalanish

10-mavzu: Oliy ta'limda o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari. (2 soat)

Reja:

1. Oliy ta'limni mutaxassislik fanlarini o'qitishning tutgan o'rni
2. Mutaxassislik fanlardan kurs ishlari mazmuni, uni tayyorlash va rasmiylashtirishga qo'yiladigan didaktik talablar
3. Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish talablari.

11-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlari: an'anaviy va innovatsion turkum. (2 soat)

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlari
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlarining ta'lim jarayonidagi o'rni.

12-mavzu: Mutaxassislik fanlardan kurs ishlari mazmuni, uni tayyorlash va rasmiylashtirishga qo'yiladigan didaktik talablar. (2 soat)

Reja:

1. Mutaxassislik fanlardan kurs ishlari mazmuni
2. Mutaxassislik fanlardan kurs ishlarini tayyorlash
3. Mutaxassislik fanlardan kurs ishlarini tayyorlashga qo'yiladigan didaktik talablar.

13-mavzu: Mutaxassislik fanlardan o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni, maslahat soatlari tashkil etish va o'tkazish metodikasi. (2 soat)

Reja:

1. Mutaxassislik fanlardan o'quv va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil qilish
2. Mutaxassislik fanlaridan maslahat soatlarini tashkil etish

14-mavzu: O'qitish vositalari: grafikli organayzerlar, o'qitishning texnik vositalari, tarqatmalar. (2 soat)

Reja:

1. O'qitish vositalari haqida ma'lumot

2. Grafikli organayzerlar, o'qitishning texnik vositalari, tarqatmalar.

15-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda masofaviy shakllari. (2 soat)

Reja:

1. Mutaxassislik fanlarni o'qitishning masofaviy shakllari
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda masofaviy shakllarni tashkil qilish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mutaxassislik fanlar o'qitish jarayoni yaxlit tizimi sifatida.
2. Mutaxassislik fanlarmazmunini yorituvchi me'yoriy xujjatlar.
3. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan metodlar.
4. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllari.
5. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar BKM baholash.
6. Pedagogik ijodkorlik ta'lim tarbiya samaradorligi omili.
7. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda badiiy adabiyotlardan foydalanish.
8. Mutaxassislik fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoiillari.
9. Mutaxassislik fanlarni o'qitishning metodik ishlarni, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi.
10. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni belgilovchi me'yoriy xujjatlar.
11. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllarining umumiy tasnifi.
12. Ma'ruza turlari va unga qo'yiladigan talablar.
13. Seminar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish texnologiyasi.
14. Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi.

15. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish texnologiyasi.

16. O'qitishning rasmiy, norasmiy va virtual shakli.

17. O'qitish ob'yekti, o'zlashtirish ob'ekti va o'qitish natijasi

18. O'qituvchi va talabalar ta'lim jarayonidagi faoliyatlari.

19. Fanni to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar.

20. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollanish;
- metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash;
- pedagogik fanlarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

Grafik organayzerlar

Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilari keltirilgan.

1) BBB jadvali. Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftoriga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

2) Insert usuli. Bu usul matnini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" – zarur; "–" – xato; "+" – yangi; "!" – e'tibor qiling; "x" – ortiqcha; "*" – ko'chirish kerak; "?" – tushunarsiz va h.k.

3) Klaster sxemasi

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'rganilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaga kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

